

## G'AFUR G'ULOM HAYOTI O'Z ASARIDA

*To'xtayeva Aziza Dusmuratovna*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazku maqola G'afur G'ulom qalamiga mansub "Shum bola" asari haqida bo'lib, unda adib asosan nimalarga urg'u berganligi tahlil qilingan. Ushbu maqolada asardagi Shum bolaga xos xixlatlarni ifodalovchi ba'zi bir holatlar ham keltirilgan.

Bilamizki, "Shum bola" asari 1936-yilda butun dunyoda urushning so'ngi nafasi kezib yurgan, o'lkamizda iqtisodiy va ma'naviy tanazzul ayni chuqurlashgan yillarda yozilgan. G'afur G'ulom "Shum bola" asari orqali nursiz, qabohat va jaholatga to'la muhitni yosh bola nigohi orqali to'la ifodalab beradi. Shum bolaning so'zi orqali aytilayotgan va tushuntirilayotgan bunday voqealar o'sha davrdagi xalq ahvolini ko'rsatishda ayricha qimmatga egadir. Eng muhimi, bu qissada bolalarning sayoq yurishi va o'z boshlaridan har xil sarguzashtlar o'tkazishining boisini ham ochib berib, Shum bolaning sarguzashtlari tarixiga hayotiy tus beradi. Ya'ni bunday zo'raki sarguzashtlar zamirida og'ir turmush sharoiti yotganligini mohirona ko'rsatadi. Asarni mutola qilish mobaynida ushbu asar "G'afur G'ulomning hayotimi?" degan savol tug'iladi kishida. Chunki adibimiz G'afur G'ulom to'qqiz yoshlarida otalaridan va o'n besh yoshlarida esa onalaridan ayriladilar. Shu paytdan boshlab yetimlikni boshdan kechiradilar. "Shum bola" asarida ham Shum bola oonasidan ayrilmagan bo'lsada, ammo undan ayro yashab yetimlikni boshdan kechirgan o'n to'rt yoshli bola edi.

Shum bola yerga ursa ko'kka sapchiydigan, bir joyda uzoq muddat turib qolsa yuragi siqilib ketadigan bolalar xilidan edi. Bir kuni u onasini ranjitib qo'yganidan xijolat bo'lib, pul topish ilinjida yo'lga tushadi. Uning boshidan o'tgan sarguzashtlari kishini lol qoldirmasdan qo'ymaydi. Qayerga borsa ham boshlagan ishi omadsizlik uchraydi va bir joydan qo'nim topa olmaydi. Chunki qayerga bormasin, kim bilan ychrashmasin faqatgina kattalarning unga nisbatan bepisand qarashiga, qo'pol muomalasiga duch keladi. Noinsof kishilar Shum boladan o'zining notabon maqsadlari uchun foydalanmoqchi bo'ladi. Masalan yuzlab qalandarlarga yo'l boshchi bo'lib har gapida Xudoni tilga oladigan "halol" Eshon Shum bolani to'g'ridan to'g'ri o'g'irlik qilishga yo'l laydi.

Butun qissa davomida Shum bolaning topqirligi, hozirjavoblighi, har qanday qiyin vaziyatdan bir amallab sog' chiqib keta olishiga amin bo'lsa bo'ladi. Quyidagilarda bu holatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan Shum bola Omon bilan birga bir boyning xizmatida bo'lgan vaqti sigirni so'yib go'shtini olib ketish chog'ida Shum bola

xaltaning ichiga o'zi kirib olganligi uning ustaomonligidan dalolat. Yana bir holat shunaqaki, guvohi bo'lganimizdek, bu vaqtga qadar ezma, laqma boyga odam bolasi teng kela olgan emas. Uning qo'lida umrbod xizmat qilib charchagan kishilarning dard-u alami ichida edi. Boyning hech bir ximatchisi unga gap qaytara olmas edi. Ammo faqatgina Shum bola uning aks edi. Boy bilan suhbatida ayniqsa ko'plab ayyorliklarni, har qanday savolga unda javob tayyorligini bilishimiz mumkin. Bu kabi yozma sahnalar asarda ko'p bora uchraydi. Ular Shum bolaning ko'plab sifatlarini ma'lum qiladi.

Asarni kitobxon o'qir ekan, uning miyasida har xil tasavvurlar charx uradi. Masalan, bu asar kulguli qilib yozilgan, o'sha davrning achinarli, jaholatga to'la davrini kulguli qilib yoritgan yoki boshqacha tasavvurlar. Ammo bu asarning yozilgan vaqtiga e'tibor beradigan bo'lsak, Ikkinchi jahon urushi yillariga yaqin davrda yozilgan. Demakki, bu asar asosan xalqning boshidan o'tgan qiyinchiliklarni ko'proq yoritgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu asar har bir kitobxonda o'zgacha bir tuyg'uni kashf qiladi. Shum bolaning xislatlari odamni e'tiborini tortadi va o'ziga yaxshi xulosa chiqarib olishi uchun juda katta turtki bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shum bola asari.
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/G'afur\\_G'ulom](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/G'afur_G'ulom)
3. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>